

II bo'lim. Insonlar orasida

8-9-darlar

TENGLIK NIMA?



Biz – Yer kurrasining farzandlarimiz. Terimiz va ko'zimizning rangi, jinsimiz, yoshimiz har xil bo'lishi mumkin. Turli qit'alarda yashashimiz, turli millat vakili bo'lishimiz mumkin. Lekin bizni bitta narsa birlashtirib turadi. Biz – insonlarmiz!



Garchi xilma-xil bo'lsak ham, har bir insonda bo'lgani kabi asosiy huquqlarimiz bor. Biz inson bo'lganimiz uchungina bu huquqlarga egamiz. Bu huquqlar inson huquqlari deb ataladi. Har bir inson munosib hayot kechirishga – oilali bo'lish, ilm olish, tibbiy yordam olish, o'zi xohlagan kasbni tanlash huquqiga ega. Inson o'ziga tegishli masalalarda qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.



Asosiy haq-huquqlarning ta'minlanishi inson qadr-qimmatining shartidir.

Tenglik – insonning asosiy huquqlaridan biri. Bu haqida nafaqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, balki Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham yozib qo'yilgan: **“Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar”**.

Inson oilada o'ziga kerakli hamma narsani oladi. Ikkinchi tomondan, oilaning har bir a'zosi boshqa a'zolarga qo'lidan kelganicha yordam beradi. Shuning uchun oilada faqat huquqlar emas, majburiyatlar ham bor. Inson ulg'ayib borgan sari uning huquq va majburiyatlar doirasi ham kengayib boraveradi.



Insonning yoshi ulg'aygani sari uning oiladagi huquq va majburiyatlari qanday o'zgarib borishiga misollar keltiring.

Insonning jinsidan qat'i nazar, oilaviy va boshqa munosabatlardagi tengligi "gender tenglik" deb ataladi. Buning ma'nosi shuki, bolalikda qiz bolalar va o'g'il bolalar, yoshlikda qizlar va yigitlar, ulg'ayganda ayollar va erkaklar bir xil huquqlarga: ilm olish, tibbiy yordam olish, sport va san'at bilan shug'ullanish, kasb tanlash huquqiga egadir.



O'g'il va qiz bolalarning tengligiga o'z hayotingizdan misollar keltiring.



14

1. Laylo nima qilayotgan edi?
2. Bu paytda Samir nima qilayotgan edi?
3. Laylo kasal bo'lib qolganda Samir nimani tushundi?



O'qib chiqib, sinfdoshlaringiz bilan o'quvchilarning huquq va majburiyatlarini muhokama qiling.

**Darsdan keyin
dam olish**

**Tibbiy yordam
olish**

**O'ziga yoqqan
mashg'ulotni
tanlash (to'garak
yoki seksiya)**

**Maktab
oshxonasida
ovqatlanish**

**Maktabda
o'qish**

**O'z fikrini
bildirish**

**Yordam
so'rash**

**Darsda
topshiriqlarni
bajarish**

**Odob-axloq
qoidalariga
rioya qilish**

**Maktab mulkini
asrash**

**Atrofdagilarni
hurmat qilish**

**Kun tartibiga
amal qilish**





Inson o'z huquqlarini himoya qilayotgan paytida boshqalarda ham xuddi unikidek huquqlar borligini unutmasligi kerak. Birovlarning haq-huquqlarini hurmat qiling!



Gender tenglik va inson huquqlari nuqtayi nazaridan qarasak, quyidagi gaplar to'g'rimi?

Sport bilan faqat o'g'il bolalar shug'ullanishi mumkin.

Olimpiadada o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham qatnashishi mumkin.

Gimnastika bilan faqat qiz bolalar shug'ullanishi mumkin.

Faqat o'g'il bolalar o'z oldiga maqsad qo'yib, keyin unga erishadi.

Bolalar o'ynaydigan maydonchaga o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham borishi mumkin.

Orzu faqat qiz bolalarda bo'ladi.

O'g'il bolalar kelajakda ishlab, pul topishi kerak.

Uy ishlarini faqat qizlar qilishi kerak.

O'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham ilm olishi kerak.



“Tenglik” mavzusida klaster tuzing.